

## **FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI MANBALARINING MILLIY TIZIMI VA QO‘LLASH AMALIYOTI**

**Axmedova Moxigul Faxridin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti,

“Advokatlik faoliyati” yo‘nalishi magistratura bosqichi talabasi

E-pochta: [Mokhigul52@gmail.com](mailto:Mokhigul52@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi (FPH) manbalarining milliy tizimi, ularning iyerarxik tuzilmasi va sud amaliyotida qo‘llanilishi masalalari tizimli tahlil qilingan. Konstitutsiya, Fuqarolik protsessual kodeksi (FPK), “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning o‘zaro nisbatini hamda ularning o‘zaro to‘ldirish mexanizmlarini yoritib beriladi. Maqolada sud amaliyotida yuzaga keladigan huquqiy kolliziyalar, normalardagi bo‘shliqlar, Oliy sud Plenumi qarorlarining huquqiy maqomi hamda raqamlashtirish sharoitida protsessual normalarni takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Tadqiqot yakunida fuqarolik sud ishlarini yuritishda huquqiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik protsessual huquqi, manbalar tizimi, iyerarxiya, Fuqarolik protsessual kodeksi, Oliy sud Plenumi qarorlari, huquqiy kolliziya, raqamlashtirish, sud amaliyoti, sudga kirish huquqi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqining (keyingi o‘rinlarda – FPH) milliy manbalari tizimi mustaqillik yillari davomida izchil shakllanib, takomillashib kelgan yaxlit huquqiy tuzilmadir. Bu tizim faqat normativ-huquqiy aktlarning yig‘indisi emas - u pog‘onali ierarxiya, ichki muvofiqlik va o‘zaro qo‘shib tartibga solish tamoyillari asosida tashkil topgan bir butunlikdir. Manbalar tizimining yaxlitligi esa FPH asosiy vazifasini - fuqarolik

ishlari bo'yicha odil sudlovni ta'minlashni - amalga oshirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.<sup>1</sup>

Milliy manbalar tizimini tadqiq etishda uni ikkita asosiy nuqtai nazardan ko'rish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir: birinchidan, tizim elementlarining tarkibi - ya'ni qaysi huquqiy shakllar FPH milliy manbalarini tashkil etishi; ikkinchidan, ushbu elementlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar - ya'ni iyerarxik bo'ysunuv, normalar raqobati, o'zaro to'ldirish va cheklash munosabatlari. Faqat ikkala jihatni birga ko'rgan holda FPH milliy manbalari tizimining haqiqiy manzarasini to'liq tasavvur qilish mumkin.<sup>2</sup>

O'zbekiston Respublikasida FPH milliy manbalari tizimining huquqiy asosi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunda (2021 yil 20 aprel, O'RQ-682-son) mustahkamlangan. Mazkur qonun normativ-huquqiy hujjatlarning turlarini va ularning o'zaro nisbatini qonunchilik darajasida belgilab bergan bo'lib, FPH manbalarining ierarxik tuzilmasini tushunish uchun asosiy metodologik manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu qonunga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya, qonunlar, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirliklar va idoralar hujjatlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlarini o'z ichiga oladi.

FPH milliy manbalari tizimida shu narsa muhimki, barcha manbalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud: quyi manba yuqori manbaning asosida chiqariladi, unga muvofiq bo'lishi shart va unga zid normalarni o'z ichiga ola olmaydi. Ushbu tamoyil huquq nazariyasida ierarxik muvofiqliq tamoyili deb ataladi va u milliy huquq tizimining ichki barqarorligini ta'minlaydi. FPH manbalari uchun bu tamoyil ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki

<sup>1</sup>Треушников М.К. (tahr.). Гражданский процесс: Учебник. 5-е изд. – М.: Статут, 2014. – С. 24–27.

<sup>2</sup>Нерсесянц В.С. Общая теория права и государства. – М.: Норма, 2012. – С. 184–191.

protsessual normalarning bir-biriga zidligi bevosita sudlov amaliyotida tartibsizlikka va fuqarolarning protsessual huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

FPH milliy manbalari ierarxiyasida ham Konstitutsiya eng yuqori pog'onani egallaydi va bu o'rin faqat rasmiy-huquqiy ustunlikdan iborat emas - Konstitutsiya FPH manbalar tizimiga g'oyaviy-huquqiy yo'nalish beruvchi, uni mazmunli birlashtiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolik protsessual huquqiga ta'siri ikki xil yo'nalishda amalga oshiriladi: bevosita ta'sir - Konstitutsiyada mustahkamlangan normalarning protsessual munosabatlarga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etilishi; bilvosita ta'sir - barcha quyiroq manbalarning Konstitutsiya ruhiga va talablariga muvofiq shakllantirilishi.<sup>3</sup>

Konstitutsiyaning FPH uchun ahamiyati bevosita uning qator moddalarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, 55-moddada har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlangan - bu qoida FPH oldidagi asosiy maqsad va vazifani belgilab beradi. 136-modda sudyalarning mustaqilligini, ularning faqat qonunga bo'ysunishini mustahkamlaydi - bu esa protsessual kafolatlar tizimining konstitutsiyaviy poydevoridir. 15-modda xalqaro shartnomalarning ichki qonunchilikka nisbatan ustuvorligini belgilaydi, bu esa FPH manbalarining tashqi - xalqaro - qatlami bilan o'zaro nisbatni tartibga soladi.

Konstitutsiyaning FPH manbalar tizimidagi ustunligi shundaki, barcha manbalar Fuqarolik protsessual kodeksi, Sudlar to'g'risidagi qonun, Oliy sud Plenumi qarorlari va boshqalar konstitutsiyaga muvofiq bo'lishi shart. Konstitutsiyaga zid har qanday normativ-huquqiy akt yoki uning muayyan

<sup>3</sup>CPLJ. General Theoretical and Historical Analysis of the Constitutionalization and Fundamentalization of Civil Procedural Principles and Guarantees.

normasini Konstitutsiyaviy sud (O'zbekistonda esa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi) aniqlashi va uni bekor qilinishi mumkin. Bu mexanizm FPH manbalar tizimining ichki konstitutsiyaviy muvofiqligini ta'minlovchi institutsional kafolatdir.

Ilmiy adabiyotlarda Konstitutsiyaning fuqarolik protsessual huquqi (FPH) manbalari tizimidagi o'rni yuzasidan turli yondashuvlar mavjud. Bir guruh olimlar, jumladan Mikhail Treushnikov va Elena Osokina, Konstitutsiyani FPH manbasi sifatida e'tirof etsalar-da, uning bevosita qo'llanilish imkoniyatini cheklangan deb hisoblaydilar. Ularning pozitsiyasiga ko'ra, Konstitutsiya normalari asosan vositachilik mexanizmi - fuqarolik protsessual kodeksi orqali amalga tatbiq etiladi.

Boshqa yondashuv vakillari, jumladan *Vladik Nersesyants va Sergey Alekseev*, shuningdek zamonaviy qiyosiy-huquqiy tadqiqotlar Konstitutsiyani bevosita amal qiluvchi, oliy yuridik kuchga ega mustaqil manba sifatida talqin qiladi.<sup>4</sup> Ushbu yondashuvga ko'ra, Konstitutsiya normalari to'g'ridan-to'g'ri huquqiy ta'sir kuchiga ega bo'lib, sudlar tomonidan bevosita qo'llanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi amaliyoti esa ikkinchi yondashuvga yaqinlashib bormoqda. Xususan, sudlar Konstitutsiyaning 55-moddasiga sud himoyasi va protsessual kafolatlarni asoslashda bevosita tayanib, uni to'g'ridan-to'g'ri huquqiy asos sifatida qo'llamoqda.

FPH milliy manbalari tizimida Fuqarolik protsessual kodeksi (FPK) alohida o'rinni egallaydi: u manbalar ierarxiyasida Konstitutsiyadan keyingi pog'onada tursa-da, FPHni bevosita va to'liq tartibga solish nuqtai nazaridan asosiy va eng muhim manba hisoblanadi. Shuning uchun ham FPK ko'pincha FPH manbalarining «qalbi» deb tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasida FPK 1997-

<sup>4</sup> Общая теория права. – Москва: Норма, 2008. – С. 120–125.  
SJIF: 5.051

yilda qabul qilingan, 2018-yilda esa tub isloh qilinib yangi tahriri tasdiqlangan. Yangi FPK 5 bo‘lim, 47 bob va 462 moddadan iborat bo‘lib, fuqarolik sudlovining deyarli barcha bosqichlari va institutlarini kompleks tartibda qamrab oladi.<sup>5</sup>

FPK ning boshqa milliy manbalarga nisbatan ustunligi quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Birinchidan, FPK protsessual normalarni tarqoq holda emas, balki birbiriga bog‘liq, ichki mantiqiy tuzilmali tizim shaklida taqdim etadi - bu esa qonunni talqin qilish va qo‘llashda izchillikni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, FPK ish qo‘zg‘atishdan tortib ijro ish yuritishigacha bo‘lgan butun protsessual zanjirni to‘liq belgilab beradi. Uchinchidan, maxsuslik: FPK umumiy qonunlar bilan tartibga solinmaydigan protsessual xususiyatlarni - sudga taalluqlilik, isbotlash tartibi, kasatsiya-apellatsiya instansiyalar tizimi kabilarni - alohida va batafsil tartibga soladi.<sup>6</sup>

FPK ning FPH manbalar tizimidagi o‘rnini to‘g‘ri anglash uchun uning quyidagi nisbatlarini ko‘rib chiqish zarur. FPK va Konstitutsiya nisbatida: FPK Konstitutsiya asosida ishlab chiqilgan va uning talablarini protsessual mexanizmlar orqali amalga oshiradi; Konstitutsiyaga zid FPK normasini Konstitutsiyaviy sud kuchsiz deb topishi mumkin. FPK va maxsus qonunlar nisbatida: maxsus qonunlarda (masalan, mehnat, oila, iste‘molchi huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlar) FPKdan farqlanuvchi protsessual normalar bo‘lishi mumkin; bunday holda maxsus qoida umumiy qoidadan ustun turadi tamoyiliga ko‘ra maxsus qonun qoidalari qo‘llaniladi. FPK va qonunosti aktlar nisbatida: qonunosti aktlar FPKning ijro mexanizmini belgilashi mumkin, ammo FPKga zid norma o‘rnatish huquqiga ega emas.

<sup>5</sup>O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi (1997 yil 30 avgust, 477-I-son; 2018 yil 29 yanvardagi O‘RQ-463-son Qonun bilan yangi tahriri). – lex.uz. – 1-modda.

<sup>6</sup>Mamasiddiqov M.M., Esanova Z.N., Habibullayev D.Yu. Ko‘rsatilgan asar. – B. 30–34.

FPK amalda FPHning «to‘liq kodifikatsiyasi» tamoyiliga asoslanadi, ya’ni asosiy protsessual normalarning barchasi FPKda jamlangan bo‘lishi lozim. Bu tamoyil, bir tomondan, qonun normalarining tarqoq bo‘lib ketishini va normalar raqobatini kamaytiradi; ikkinchi tomondan esa FPK matni doimo yangilanib, ishlab chiqilib turishini taqozo etadi. Zamonaviy huquqshunoslik adabiyotida shu narsa ta’kidlanadiki, to‘liq kodifikatsiya tamoyilini saqlab qolish holma-hol qiyinlashib bormoqda, chunki ijtimoiy munosabatlar murakkablashishi bilan birga yangi protsessual institutlar (mediatsiya, elektron sud ish yuritish, onlayn sudlov va boshqalar) vujudga kelmoqda va ularni FPKga to‘liq kiritib ulgurishning imkoni bo‘lmayapti.

FPH milliy manbalar tizimida FPKdan tashqari bir qator maxsus qonunlar ham muhim o‘rinni egallaydi. Ularning ichida “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun (2000 yil 14 dekabr) alohida ahamiyatga ega, chunki u FPHning subyektiv tarkibini - sudlar tizimini, sudyalarning huquqiy maqomini, ularning vakolat doirasini - belgilab beradi. Protsessual normalar sud va tomonlarning o‘zaro harakatlarini tartibga soladi; biroq sudning o‘zi qanday tashkil topganligi, sudyalar qanday tayinlanishi, qaysi sud qaysi ishlarga vakolatli ekanligi kabi masalalar FPKda emas, balki aynan “Sudlar to‘g‘risida”gi qonunda tartibga solinadi. Shu ma’noda ushbu qonun FPHning tashkiliy-huquqiy asosini tashkil etadi.<sup>7</sup>

“Sudlar to‘g‘risida”gi qonunning FPK bilan munosabati funksional jihatdan o‘ziga xos: ikki manba bir-birini to‘ldiradi, birining normalari boshqasiz to‘liq amal qila olmaydi. Sudning tashkil topishi qoidalari bo‘lmasa, FPKning sudga taalluqlilik va sudlovlik qoidalari amalda ma’nosiz bo‘lib qoladi. Aksincha, “Sudlar to‘g‘risida”gi qonun protsessual tartibni o‘rnatmaydi - u faqat tashkiliy

<sup>7</sup>Ярков В.В. (tahr.). Гражданский процесс: Учебник для вузов. 10-е изд. – М.: Статут, 2017. – С. 32–38.  
SJIF: 5.051

asosni belgilaydi. Bu ikkala qonunning birligi - tashkiliy va protsessual qoidalarining o‘zaro bog‘liqligi - FPH normativ bazasining mohiyatini tashkil etadi.<sup>8</sup>

Tashkiliy-protsessual manbalar qatoriga shuningdek quyidagi qonunlar kiritilishi lozim: “Ijro ish yuritishi to‘g‘risida”gi Qonun - sud qarorlarini majburiy ijro etish protsessual mexanizmini belgilaydi va FPKning ijro bo‘limini to‘ldiradi; “Advokatlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonun - protsessdagi vakillik institutining normativ asosi; “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun - fuqarolik nizolarini sudgacha va sud jarayonida hal qilishning muqobil yo‘lini tartibga soladi. Sanab o‘tilgan manbalar FPHning muayyan institutlari doirasida qo‘llanilib, FPK bilan birga manbalar tizimining maxsus qatlami ni tashkil etadi.

Ushbu tashkiliy-protsessual qonunlar FPH manbalar tizimida o‘ziga xos «bog‘lovchi» funksiyani bajaradi: u, bir tomondan, Konstitutsiyaning tashkiliy talablarini (sudlarning mustaqilligi, tizimi) aniqlashtirsa, ikkinchi tomondan, FPKning protsessual mexanizmlarini amalda ta‘minlovchi instituttsional infratuzilmani shakllantiradi. Shu bois ushbu qonunlarni FPH manbalar tizimidan alohida o‘rganish metodologik xatoga olib keladi: ularni faqat FPK va Konstitutsiya bilan birlikda, yaxlit tizimda ko‘rish mumkin.

FPH milliy manbalar tizimida **qonunosti aktlar** - Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirliklar va idoralar normativ hujjatlari - o‘z o‘rniga ega. Biroq bu qatlam FPH uchun o‘ziga xos cheklov bilan to‘silgan: protsessual huquq sohasida qonunosti aktlar qoidalar yaratish huquqiga emas, balki faqat mavjud qonuniy qoidalarini aniqlashtirish, tartib-taomillarni belgilash va ijroiya mexanizmlarini ta‘minlash vakolatiga egadirlar. Bu cheklov protsessual

<sup>8</sup>Гражданское процессуальное право России / Под ред. Афанасьева. Ко‘rsatilgan asar. – S. 44–45.  
SJIF: 5.051

huquqning fuqaro erkinliklarini bevosita tartibga solishi bilan bog‘liq: qonunchilik darajasida belgilanmagan protsessual majburiyat yoki cheklov qonunosti akt bilan joriy etilishi mumkin emas.

Prezidentning farmon va qarorlari FPH sohasida asosan sud tizimini isloh qilish, sud islohotlarini belgilash, yuridik kadrlar tayyorlash kabi tashkiliy-siyosiy yo‘nalishlarda qo‘llaniladi. Masalan, 2017–2021 yillardagi sud-huquq islohotlari doirasida Prezident farmonlari FPK yangi tahririni ishlab chiqish jarayonini boshlab bergan va asosiy yo‘nalishlarini belgilagan. Shu ma‘noda farmonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri protsessual normalar o‘rnatmasa-da, FPH normativ muhitining shakllanishida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Vazirlar Mahkamasi qarorlari FPH sohasida ko‘proq protsessual xarajatlar, davlat bojlari miqdori, ijro ish yuritishning ba‘zi jihatlari va sud infratuzilmasiga oid masalalarni tartibga solishda qo‘llaniladi. Ushbu aktlar FPKning tegishli normalariga asoslanadi va uning rivojlantiruvchi hujjatlar sifatida qaraladi. Ularning FPK bilan zid bo‘lishi mumkin emas - «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasiga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi qarorlari qonunlar asosida va ularga muvofiq chiqariladi.

Vazirliklar va idoralar normativ hujjatlari - masalan, Adliya vazirligi yoki Oliy sud ko‘rsatma va yo‘riqnomalari - FPH tartibga solishida amaliy-texnik funksiyani bajaradi. Ular odatda protsessual shakl va talablarni belgilaydi (da‘vo arizasi shakli, hujjatlarni rasmiylashtirish talablari va hokazo), lekin yangi protsessual huquq yoki majburiyat yarata olmaydi. FPH manbalari tizimida ushbu qatlam «texnik tartibga solish» qatlami deb belgilanishi mumkin.

FPH milliy manbalari tizimida eng munozarali masalalardan biri Oliy sud Plenumi qarorlarining huquqiy tabiati va ularni rasmiy manba deb e‘tirof etish-

etmaslik masalasidir. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi fuqarolik qonunchiligini qo‘llash bo‘yicha sudlarga yo‘naltiruvchi ko‘rsatmalar beradi. Ushbu qarorlar rasmiy jihatdan qonunni rasmiylashtirilgan izohlash sifatida belgilanadi va majburiy normativ akt emas, deb qaraladi. Biroq amaliyotda pastki instansiya sudlari ushbu qarorlarni kelgusida e‘tiborga olmay qo‘ya olmaydi - ular bevosita protsessual amaliyotni shakllantiradi.

Ilmiy adabiyotlarda Oliy sud Plenumi qarorlarining manbaviy tabiati borasidagi muammo uzoq yillardan beri muhokama qilinib kelinmoqda. Bir tomondan, mantiqiy dalil shundaki: ushbu qarorlar Oliy sud tomonidan qabul qilinadi, qonun hujjatlarida ko‘rsatilmagan yangi qoida o‘rnatmaydi, balki mavjud qonunni izohlab beradi; shu bois ular qonun ijodkorligi emas, qonunni talqin qilish mahsuli hisoblanadi. Boshqa tomondan, realistik yondashuv shuni ko‘rsatadiki: Oliy sud Plenumi qarorlari amalda sud amaliyotini uyg‘unlashtiradi, ular e‘tiborga olinmasa apellatsiya va kasatsiya instansiyalarida qaror bekor qilinishi ehtimoli kuchayadi - bu esa ularning de-fakto majburiyligini anglatadi.

O‘zbek huquqshunosligida ushbu masalaga nisbatan muvozanatli yondashuv shakllanib bormoqda: Oliy sud Plenumi qarorlarini rasmiy manba sifatida tan olmaslik bilan birga ularning FPH normalarini to‘ldiruvchi va aniqlashtiruvchi amaliy ahamiyatini e‘tirof etish. Mazkur yondashuv amaliyot bilan nazariyaning o‘zaro munosabatini to‘g‘riroq aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan ushbu qarorlarni “protsessual manbalarning kvazi-normativ qatlami” deb atash mumkin: ular rasmiy qonun normasi kuchiga ega bo‘lmasa-da, FPH tartibga solish tizimida real va muhim o‘rin tutadi.

Oliy sud Plenumi qarorlarining FPK bilan nisbati ham diqqatga sazovor. Ushbu qarorlar FPKning protsessual normalarini amaliy talqin qilib, ularni konkret

vaziyatlarga moslashtiradi. Biroq bunday talqin FPK matnini o'zgartira olmaydi va uning qo'llanilishini to'xtatib qo'ya olmaydi.

FPH milliy manbalarining o'zaro nisbatlari faqat ierarxik tartibdan iborat emas - ular kompleks munosabatlar tizimini tashkil etadi. Uchta asosiy munosabat turi ajratib ko'rsatilishi mumkin: birinchisi - ierarxik bo'ysunuv munosabati, bunda yuqori manba quyi manbaning yuridik asosini tashkil etadi va quyi manba unga zid bo'la olmaydi; ikkinchisi - normalar kolliziyasi (ziddiyati) munosabati, bunda bir xil faktik holatga nisbatan ikki yoki undan ortiq normaning bir vaqtda qo'llanilishi mumkin bo'lib, kollizion qoidalar yordamida hal qilinadi; uchinchisi - o'zaro to'ldirish munosabati, bunda turli manbalar bir institutni turli tomonlardan tartibga solib, birga to'liq manzara hosil qiladi.

Iyerarxik bo'ysunuv munosabati FPH milliy manbalar tizimining «skelet»ini tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sudning normativ aktlarni konstitutsiyaviy muvofiqlik jihatidan tekshirish vakolati orqali ta'minlanadi. Protsessual xususiyatga ega masalada ham ierarxik tartib qat'iy amal qiladi: FPK normasi Prezident farmoni bilan o'zgartirilishi mumkin emas, Oliy sud Plenumi qarorida FPK normasi bekor qilinishi mumkin emas. Ushbu rasmiy ierarxiyaning buzilishi bekor qilish yoki kuchsiz deb topish vositalari orqali bartaraf etiladi.

Normalar kolliziyasi FPH amaliyotida eng ko'p muammo tug'diruvchi hodisadir. Ayniqsa, FPK va boshqa qonunlar o'rtasidagi kolliziyalar - masalan, FPK bilan mehnat to'g'risidagi qonun, oila kodeksi yoki iste'molchi huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonundagi protsessual normalar o'rtasidagi tafovutlar - amaliyotda tez-tez uchraydi. Bunday hollarda kollizionni hal qilishda uch asosiy tamoyildan foydalaniladi: *lex specialis derogat legi generali* - maxsus qoida umumiy qoidadan ustun; *lex posterior derogat legi priori* - keyingi qoida oldingi

qoidadan ustun; *lex superior derogat legi inferiori* - yuqori manba quyida manbadan ustun. Ushbu tamoyillar o'zbek qonunchiligida ham, hatto to'g'ridan-to'g'ri kodifikatsiya qilinmagan bo'lsa ham, huquqiy an'ana va sudlov amaliyoti orqali qo'llaniladi.<sup>9</sup>

Fuqarolik protsessual huquqi (FPH) manbalari tizimida o'zaro to'ldirish munosabati muhim funksional ahamiyat kasb etadi. Ushbu munosabat normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ichki uyg'unlikni ta'minlab, ularning yagona protsessual tizim sifatida amal qilishiga xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Sudlar to'g'risidagi qonuni o'zaro funksional jihatdan bir-birini to'ldiradi: FPK fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual tartibini belgilasa, Sudlar to'g'risidagi qonun sud tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. Shu orqali protsessual faoliyatning shakli va institutsional tuzilmasi o'zaro uyg'unlashadi.

Shuningdek, FPK va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari o'rtasidagi munosabat ham o'zaro to'ldiruvchanlik xarakteriga ega. FPK umumiy protsessual qoidalarni va tartibotlarni belgilasa, Plenum qarorlari ushbu normalarning bir xil va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash maqsadida ularni rasmiy talqin qiladi hamda sud amaliyotini yo'naltiradi. Natijada normativ baza va uni qo'llash amaliyoti o'rtasida uzviy bog'liqlik yuzaga keladi.

Bundan tashqari, FPK va qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar o'zaro to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi: kodeks asosiy protsessual qoidalarni belgilasa, ijro etuvchi organlar tomonidan qabul qilinadigan aktlar ushbu qoidalarni amalga

<sup>9</sup> A Guide to Civil Procedure: Integrating Critical Legal Perspectives. – New York: NYU Press, 2022. – P. 34–38. DOI: 10.18574/nyu/9781479805938.001.0001.  
SJIF: 5.051

oshirishning texnik va tashkiliy mexanizmlarini tartibga soladi. Bu holat protsessual huquq normalarining amaliyotda samarali ishlashini ta'minlaydi.

FPH manbalari tizimining muhim tarkibiy jihatlaridan biri protsessual analogiya institutidir. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining tegishli qoidalariga muvofiq, qonun bilan bevosita tartibga solinmagan protsessual munosabatlar o'xshash huquqiy normalar asosida hal etilishi mumkin. Agar bunday norma mavjud bo'lmasa, umumiy huquqiy tamoyillar va fuqarolik protsessining asosiy prinsiplari qo'llaniladi. Shu tariqa protsessual analogiya huquqiy bo'shliqlarni to'ldiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lib, FPK normalari hamda konstitutsiyaviy prinsiplar o'rtasida bog'lovchi funktsiyani bajaradi.

Umuman olganda, o'zaro to'ldirish va protsessual analogiya institutlari FPH manbalari tizimini yopiq emas, balki dinamik, moslashuvchan va yaxlit tizim sifatida shakllantiradi hamda uning amaliy samaradorligini oshiradi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy tahlillar asosida O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual huquqi (FPH) milliy manbalari tizimi yuzasidan quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarni ilgari surish mumkin.

Birinchiidan, FPH milliy manbalari tizimi Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Sudlar to'g'risidagi qonuni, boshqa organik qonunlar, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlaridan iborat pog'onali va o'zaro bog'langan yaxlit tuzilmani tashkil etadi. Ushbu tizim Romano-german (kontinental) huquq oilasiga mansub bo'lib, unda normativ-huquqiy aktlarning ierarxiyasi asosiy metodologik asos sifatida namoyon bo'ladi.<sup>10</sup>

<sup>10</sup> Mamasiddiqov M. rahbarligidagi Fuqarolik protsessual huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2023. – B. 58–61.  
SJIF: 5.051

Ikkinchidan, Konstitutsiyaning ustuvorligi nafaqat formal-ierarxik, balki mazmuniy (substantiv) xarakterga ham ega bo‘lib, u barcha protsessual normalarning odil sudlov, sud himoyasi va protsessual tenglik prinsiplari bilan uyg‘unligini ta‘minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi esa tizimning markaziy kodifikatsiyalashgan manbasi sifatida protsessual tartibotning bir xilligini ta‘minlovchi asosiy huquqiy asos hisoblanadi.<sup>11</sup>

Uchinchidan, fuqarolik protsessual huquqi manbalari tizimidagi o‘zaro nisbatlar ierarxiya, kolliziya va o‘zaro to‘ldirish mexanizmlari orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur mexanizmlar huquq normalarini to‘g‘ri qo‘llashda metodologik yo‘riqnoma vazifasini bajaradi hamda sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.<sup>3</sup> Fuqarolik protsessual huquqi manbalari tizimi statik emas, balki doimiy rivojlanib boruvchi dinamik tizim bo‘lib, uning barqarorligi qonunchilik islohoti, sud amaliyoti va ilmiy doktrina o‘zaro ta‘siri natijasida ta‘minlanadi. Shu bois manbalarni o‘rganish ularning tizimli bog‘liqligi va evolyutsion rivojlanishini tahlil qilishni talab etadi.

### **Sud amaliyotida fuqarolik protsessual huquqi manbalarini qo‘llashdagi muammolar**

Fuqarolik protsessual huquqi manbalarini sud amaliyotida to‘g‘ri va izchil qo‘llash - huquqiy davlat qurilishining bosh shartlaridan biridir. Biroq ko‘plab davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, protsessual huquq manbalari bilan bog‘liq masalalar nazariyada yechilganday ko‘rinsa-da, amaliyotda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. O‘zbekiston Respublikasida 2018-yilda yangi Fuqarolik protsessual kodeksining (FPKning) qabul qilinishi muhim sifat o‘zgarishlarini amalga oshirdi.

<sup>11</sup> Xodjaev Sh. Fuqarolik protsessi (Umumiy qism). – Toshkent: TDYU, 2021. – B. 33–37  
SJIF: 5.051

Ammo kodeksning ilg'or me'yorlari bilan ularning real amaliyotda ijrosi o'rtasidagi tafovut dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.<sup>12</sup>

Hozirda fuqarolik protsessual huquqi manbalarini qo'llashdagi muammolar bir qator jihatlarni o'z ichiga oladi: *birinchidan*, normalar iyerarxiyasini to'g'ri belgilash; *ikkinchidan*, qonun normalarining ziddiyati (kolliziya) va bo'shliqlari; *uchinchidan*, Oliy sud Plenumi qarorlarining huquqiy tabiatini aniqlash; *to'rtinchidan*, xalqaro shartnomalar va milliy qonunchilik o'rtasidagi munosabatlar; *beshinchidan*, sud amaliyotining birxilligini ta'minlash masalasi.<sup>13</sup> Ushbu bo'limda mazkur muammolar milliy va xalqaro keyslar orqali tahlil etiladi.

Metodologik jihatdan qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil va formal-mantiqiy usullar asosida O'zbekiston Respublikasi FPK (2018), Yevropa Inson Huquqlari Sudi (YeIHS) amaliyoti, shuningdek AQSh, Germaniya, Rossiya va boshqa davlatlar sud amaliyotidan foydalanib tahlil qilinadi.

Fuqarolik protsessual huquqi manbalarining klassik tushunchasi yuridik fanda turlicha talqin etiladi. Kontinental huquq tizimida (Germaniya, Fransiya, Italiya, O'zbekiston) asosiy manba sifatida qonunchilik hujjatlari (kodekslar) birinchi o'ringa qo'yiladi. Common law tizimida esa sud pretsedentlari (*case law*) muhim manba sifatida tan olinadi. Bu farq amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi: qonun normasi yo'q yoki noaniq bo'lgan hollarda qaysi manbadan foydalanish kerakligi masalasi yechimini qiyinlashtiradi.<sup>14</sup>

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 1-moddasiga muvofiq, fuqarolik protsessual qonunchilik O'zbekiston Respublikasi

<sup>12</sup> Esanova Z. Fuqarolik protsessual huquqi. - T.: TDYU, 2022. - B. 14–22.

<sup>13</sup> Zuckerman A.A.S. (ed.) Civil Justice in Crisis: Comparative Perspectives of Civil Procedure. - Oxford: Oxford University Press, 1999. - P. VII–XI; 3–15.

<sup>14</sup> Globalex. Comparative Civil Procedure: Finding Primary and Secondary Sources. NYU School of Law. - URL: [https://www.nyulawglobal.org/globalex/comparative\\_civil\\_procedure1.html](https://www.nyulawglobal.org/globalex/comparative_civil_procedure1.html).

konstitutsiyasi, ushbu kodeks va boshqa qonunlardan iborat. Konstitutsiya normalarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir kuchi nazariy jihatdan e‘tirof etilgan bo‘lsa-da, amaliyotda sudlar aksariyat hollarda bevosita konstitutsiyaga murojaat qilish o‘rniga maxsus qonun normalarini qo‘llashni afzal ko‘radi. Bu holat konstitutsionalizatsiya jarayonining hali to‘liq tugallanmaganligini ko‘rsatadi.<sup>15</sup>

Mukammal normativ tartibga solishni ta‘minlash maqsadida xalqaro standartlar ham inobatga olinishi lozim. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasining 6-moddasi (adolatli muhokama huquqi) bo‘yicha eng ko‘p buzilish holatlari qayd etilib, uning talablari bevosita fuqarolik protsessiga tatbiq etiladi.<sup>16</sup> O‘zbekiston YeIHS yurisdiksiyasiga bo‘ysunmasa-da, xalqaro standartlar milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim yo‘riqnoma bo‘lib xizmat qiladi.

A.A.S.Zuckerman ta‘kidlaganidek, ko‘plab davlatlarda adolatni amalga oshirishdagi inqiroz holati kuzatilmoqda: kechikishlar va yuqori xarajatlar fuqarolik sudlariga murojaat etishni nafaqat qimmatga, balki ba‘zan umuman imkonsiz qilib qo‘ymoqda. Bu muammo manbalarga doir qoidalarni noto‘g‘ri qo‘llashdan ham kelib chiqishi mumkin - binobarin manbalar iyerarxiyasini to‘g‘ri o‘rnatish amaliy jihatdan ham zaruriy masala hisoblanadi.<sup>17</sup>

Protsessual qonunchilikda normativ kolliziya (ya‘ni, bir xil masalani turlicha tartibga soluvchi normalarning mavjudligi) va bo‘shliqlar (ya‘ni, normativ tartibga

<sup>15</sup> CPLJ. General Theoretical and Historical Analysis of the Constitutionalization of Civil Procedural Principles. - URL: <https://www.cplj.org/publications/4-1>.

<sup>16</sup> Strong S.I. General Principles of Procedural Law and Procedural Jus Cogens // Penn State Law Review. - 2018. - URL: <https://www.pennstatelawreview.org>.

<sup>17</sup> Mamasiddiqov M.M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi. - T.: Ziyouz, 2020. - B. 18–35.

solinmagan vaziyatlar) eng keng tarqalgan muammolardan hisoblanadi. Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu muammo barcha huquq tizimlarida, jumladan kontinental va common law tizimlarida ham mavjud.<sup>18</sup>

O'zbekiston amaliyotida ushbu muammo bir qator hollarda yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, fuqarolik protsessida elektron dalillar masalasi FPKning 64-moddasida umumiy tarzda belgilangan, ammo ularning yetarlilik, maqbullik va ishonchlilik mezonlari konkret tartibga solinmagan. Bu muammo zamonaviy tadqiqotlarda ham ta'kidlangan: raqamli mulk bo'yicha fuqarolik-huquqiy davolarda egalikni tasdiqlovchi hujjatlar va protsessual jihatlar alohida ko'rib chiqishni talab etadi.<sup>19</sup>

Xalqaro tajribada Germaniyada Zivilprozessordnung (ZPO) normalarida kolliziya holati yuzaga kelganda, birinchi navbatda maxsus norma ustunligi (*lex specialis derogat legi generali*), keyin esa keyingi norma ustunligi (*lex posterior derogat legi priori*) tamoyillari qo'llaniladi.<sup>20</sup> O'zbekiston sudlari ham ushbu umumiy huquqiy tamoyillardan foydalanishi lozim, ammo amaliyotda ularning izchil tatbiq etilishi hali to'liq ta'minlanmagan.

Qonunchilikdagi Bo'shliqlar muammosi bo'yicha muhim xalqaro kays - ***Airey v. Ireland (1979)*** ishi YeIHSda ko'rilgan. Unda sud sudga murojaat huquqi nafaqat rasmiy to'siqlarni bartaraf etishni, balki real kirish imkoniyatini ham

<sup>18</sup> Journal of Politics and Law. Vol. 9, No. 5, 2016. Comparative Study of Civil Procedure in Common Law and Civil Law Systems. - URL: <https://www.researchgate.net/publication/304611509>

<sup>19</sup> Azirbaev S.K. Raq amli mulk ustidan egalik davolari: fuqarolik huquqi va protsessual me'yorlar // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi.-2025. - 43(2). - B. 109-111. - URL: <https://inlibrary.uz/index.php/tinnint/article/view/95933>

<sup>20</sup> Zivilprozessordnung (ZPO). Deutschland. §§ 1-25 (umumiy qoidalar). Lex specialis derogat legi generali; lex posterior derogat legi priori tamoyillari.

kafolatlamasini ta'kidlagan.<sup>21</sup> Mazkur pozitsiya bo'sh qoldirilgan normativ maydonlarni protsessual kafolatlar talablari orqali to'ldirish zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni, qonunda bevosita ko'rsatilmagan hollarda ham sudya adolat tamoyilidan kelib chiqib harakat qilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasida Oliy sud Plenumining qarorlari ham muhim o'rin ahamiyatga ega. Ularning huquqiy tabiati hamon munozarali masala bo'lib qolmoqda: bu qarorlar huquqiy me'yor yaratadimi yoki faqat qonunni rasmiy izohlaydi? Ushbu savol protsessual manbalar tizimida Plenum qarorlarining o'rnini to'g'ri belgilash uchun nazariy jihatdan hal etilishi lozim.

Ushbu qarorlar amaliyotda norma sifatida qabul qilinadi, ammo rasmiy huquqiy tabiatiga ko'ra ular me'yoriy hujjat emas. Bu ikkilanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. *Birinchidan*, Plenum qarorlari o'zaro ziddiyatga ega bo'lganda qaysi biri ustunlik qilishini belgilash qiyin. *Ikkinchidan*, Plenum qarorining o'zi qonun normasi bilan to'qnashib qolsa, qaysi birini qo'llash lozimligi aniq tartibga solinmagan.

Qiyosiy huquqshunoslikda bu masala turlicha yechilgan. Rossiyada Oliy sud Plenumi qarorlari rasmiy ravishda sudlar uchun majburiy izoh sifatida belgilangan va qonunchilikda bu holat aks ettirilgan.<sup>22</sup> Germaniyada esa federal Oliy sud (Bundesgerichtshof) qarorlari pretsedent kuchi kasb etmasa-da, quyi sudlar ularga amalda amal qiladi - chunki qoidabuzarlik apellatsiya bosqichida bekor qilinish xavfini tug'diradi.

<sup>21</sup> Airey v. Ireland, Application No. 6289/73, ECtHR, 09.10.1979. - HUDOC: <https://hudoc.echr.coe.int>

<sup>22</sup> Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksi. 13-modda (Oliy sud Plenumi qarorlarining huquqiy maqomi).

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga muvofiq, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyillari va normalari O‘zbekiston huquqiy tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo amaliyotda xalqaro shartnomalar va milliy protsessual qonunchilik o‘rtasidagi munosabatni belgilash ko‘pincha qiyinchilik tug‘diradi.

Xalqaro hamkorlik masalalarida **“Fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sud ishlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikning ayrim masalalari to‘g‘risida”** Oliy sud Plenumining 2012 yilgi 6-son qaroriga ko‘ra, fuqarolik va jinoyat ishlari bo‘yicha sud ishlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlikning asosiy prinsiplari belgilangan. Biroq xalqaro shartnomaning protsessual normasini muayyan ish bo‘yicha qo‘llash tartibi va milliy normalar bilan kolliziya yuzaga kelganida hal etish mexanizmi amaliyotda ko‘pincha noaniqliklar keltirib chiqaradi.

Ushbu muammoni ko‘rsatuvchi xalqaro kays - *Hornsby v. Greece* (1997) ishi mavjud. Unda YeIHS birinchi marta aniq belgiladi: 6-modda bo‘yicha adolatli muhokama huquqi sud qarorini ijro etish bilan chambarchas bog‘liq. Yurisdiksiyasi bo‘lgan organlar tomonidan huquqiy jihatdan yaroqli qarorni ijro etishdan bosh tortish yoki kechiktirish 6-moddani buzish deb topildi. Ushbu yondashuv milliy protsessual qonunchilikda xalqaro me‘yorlarni hisobga olish zaruratini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalari, jumladan MDH doirasidagi hamkorlik shartnomalari, huquqiy yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomalar fuqarolik protsessiga bevosita ta‘sir etadi. Amaliyotda chet el sudlari qarorlarini tan olish va ijro etish masalalari, chet el fuqarolariga oid ish yuritish tartibotlari ko‘pincha noaniqliklar bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Fuqarolik protsessual huquqi manbalarini qo‘llashdagi eng jiddiy muammolardan biri - bir xil yoki o‘xshash huquqiy masalalar bo‘yicha turli sudlar, hatto bir sudning turli kollegiyalari tomonidan qabul qilinadigan ziddiyatli qarorlardir. Bu holat huquqiy barqarorlik va adolat tamoyillarini buzadi, fuqarolarning huquqiy xavfsizligini kamaytiradi.<sup>23</sup>

M.A.Shapiro tomonidan olib borilgan tadqiqotda tahlil etilganidek, fuqarolik protsessida qonun ustuvorligi ikki yuzlama tabiatga ega: bir tomondan, u qat’iy va universallikni talab qiladi; boshqa tomondan, har bir muayyan ish o‘ziga xos bo‘lib, individual hal etishni zarur qiladi. Bu ziddiyat protsessual me‘yorlarni qo‘llashda birxillikni ta’minlashni qiyinlashtiradi.

Z.D.Clopton tadqiqotida ko‘rsatilganidek, AQSHda shtat sudlari federal sudlarga qaraganda 60 barobar ko‘p fuqarolik ishini ko‘radi, ammo ular akademik tadqiqotlar maydonida nisbatan kam o‘rganilgan.<sup>24</sup> Protsessual normalarni qo‘llashdagi farqlar qonunga emas, balki odatga asoslanishi mumkin - bu esa normativ manbaning real amaliyotda qanday ishlashini ko‘rsatadi.<sup>25</sup>

O‘zbekistonda sud amaliyotining birxilligini ta’minlash mexanizmlari qatorida apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida qarorlarni qayta ko‘rish imkoniyati mavjud.<sup>26</sup> Oliy sud Plenumining ko‘rsatmalariga ko‘ra muayyan yo‘l-

<sup>23</sup> Shapiro M.A. Civil Procedure’s Partial Rule of Law // Rutgers Law School Research Paper. - 2025. - URL: <https://ssrn.com/abstract=5353147>

<sup>24</sup> Clopton Z.D. Making State Civil Procedure // SSRN. - 2018. - URL: <https://ssrn.com/abstract=3147280>

<sup>25</sup> Columbia Law Review. A Tale of Two Civil Procedures. - 2022. - URL: <https://www.columbialawreview.org/content/a-tale-of-two-civil-procedures/>

<sup>26</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001 yil 1-iyundagi 4-son qarori «Fuqarolik ishlarini apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida».

yoʻriqlar belgilangan. Biroq amaliyot shuni koʻrsatadiki, quyi sudlar Oliy sud koʻrsatmalariga har doim ham rioya qilmaydi, bu esa amaliyot birxilligini buzadi.

Fuqarolik protsessual huquqi manbalarini qoʻllashdagi dolzarb muammolardan yana biri - sudga kirish huquqining real taʼminlanishi masalasidir. Koʻplab davlatlarda qonunchilik rasman bu huquqni kafolatlasa-da, amalda u turli toʻsiqlar tufayli cheklanadi: yuqori davlat boji, yuridik yordam yoʻqligi, geografik masofalar, protsessual tartibotlarning murakkabligi.<sup>27</sup>

YeIHS amaliyotida *Airey v. Ireland* (1979) ishi bu sohada pretsedent boʻldi. Irlandiyalik fuqaro Joanna Airey er-xotinni ajratish ishi boʻyicha yuqori Oliy sudda sudlanish xarajatlarini koʻtara olmaganligi sababli oʻz huquqlarini himoya qila olmadi. YeIHS 6-moddaning 1-qismini buzilgan deb topdi, chunki davlat rasmiy jihatdan fuqaroga sudga borish huquqini bergan, ammo amalda bu imkoniyatni taʼminlamagan. Bu kays barcha davlatlar uchun muhim sabo: protsessual huquq manbalarida belgilangan huquqlar faqat rasmiy eʼtirof bilan chegaralanmasligi, balki real taʼminlanishi ham shart.

Fuqarolik protsessual huquqi manbalarini qoʻllashdagi zamonaviy muammolar qatorida **raqamlashtirish bilan bogʻliq masalalar** alohida oʻrin egallaydi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, elektron hujjatlar va dalillarning sudga taqdim etilishi, masofaviy muhokama oʻtkazish kabi yangi realliklar koʻplab davlatlarning protsessual qonunchiligini yangilanishga majbur qilmoqda. Oʻzbekiston amaliyotida raqamli mulk masalalari boʻyicha tadqiqotda taʼkidlanganidek, blockchain texnologiyasi, raqamli aktivlar (NFT) va raqamli hujjatlar boʻyicha egalik huquqini himoya qilish masalalarida mavjud protsessual meʼyorlar yetarli darajada tartibga solishni taʼminlamaydi. Milliy protsessual

<sup>27</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 19-modda (fuqarolarning huquqlari va erkinliklari kafolatlari).

amaliyotni yangi texnologik rivojlanishga moslashtirish zarurligi aniq ko'rsatib bermoqda.

Texnologiyaning protsessdagi roli - federal va shtat sudlari qiyosida ham - muhim farqlarni keltirib chiqaradi. Masalan, AQSHda elektron ariza berish (e-filing) va masofaviy ko'rishlar (remote hearings) normalashgan, Germaniya esa 2022 yildan boshlab barcha sud organlarida elektron yozishmani majburiy joriy etdi. O'zbekistonda bu jarayon jadal davom etmoqda, ammo protsessual qonunchilikda tegishli normalar hali to'liq shakllanmagan.

Zamonaviy fuqarolik protsessida sun'iy intellekt (AI) texnologiyasining qo'llanilishi ham yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda: sun'iy intellekt tomonidan tayyorlangan hujjatlar, algoritmik xulosalar va qarorlarning protsessual maqomi hamon huquqiy jihatdan noaniq bo'lib qolmoqda.<sup>28</sup> Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun protsessual huquq manbalari tizimini kengaytirish va yangilash zarur.

Sud amaliyotida protsessual huquq manbalarini qo'llashdagi yana bir muhim muammo - isbotlash tartibiga oid normalarni to'g'ri talqin etish va dalillar qabul qilinuvchanligi (*admissibility*) mezonlarini belgilashdir. Isbotlash jarayoni protsessual huquqning markaziy qismi bo'lib, qanday dalillar qabul qilinadi, ularning kuchi qanday belgilanadi va isbotlash yuki kimga yuklatiladi - bu masalalar protsessual manbalarda aniq tartibga solinishi lozim.<sup>29</sup>

O'zbekiston Respublikasi FPKning 8-bobi dalillarga bag'ishlangan bo'lib, dalillar tushunchasi, ularning turlari (izohlar, hujjatlar, ashyoviy dalillar, ekspert

<sup>28</sup> Glover M. The Federal Rules of Civil Settlement // NYU Law Review. - 2012. - Vol. 87. - URL: <https://ssrn.com/abstract=1958615>

<sup>29</sup> Taruffo M. (ed.) Abuse of Procedural Rights: Comparative Standards of Procedural Fairness. - Boston: Kluwer International, 1999.

xulosalari va boshqalar), yetarlilik va maqbullik mezonlari belgilangan. Biroq amaliyotda ko‘proq qo‘llaniladigan yoki sudyalarning tomonidan ko‘proq ishonch bildirilgan dalil turlarini boshqalardan ustun qo‘yish holatlari kuzatilmoqda, bu esa qonunning barcha dalillarni teng baholash prinsipiga zid keladi.

Qiyosiy huquqda dalillarga oid qoidalar muhim farqlarni ko‘rsatadi. Common law tizimida dalillar huquqi (*Evidence Law*) alohida o‘rganilgan soha bo‘lib, protsessual huquqdan ajratilgan. Kontinental tizimda esa dalillarga oid qoidalar asosan protsessual kodekslarda joylashtirilgan. Ushbu farq amaliy ahamiyatga ega: kontinental tizimda sud dalillar bilan yanada faol munosabatda bo‘ladi, common law tizimida esa advokatga katta mustaqillik beriladi.

Fuqarolik protsessual huquqi manbalarini qo‘llashdagi muammolar universal xarakter kasb etadi. Har bir davlat o‘ziga xos sharoitlarda bu muammolarga duch kelsa-da, qiyosiy tahlil umumiy tendensiyalar va yechimlarni aniqlash imkonini beradi. *Birinchi umumiy muammo* - protsessual me‘yorlarning oshib ketishi (*overcomplication*). Germaniyada “Zivilprozessordnung” (ZPO) ko‘plab marotaba o‘zgartirilib, normalar soni va murakkabligi oshib ketgan. Fransiyada Yangi Fuqarolik protsessual kodeksi (NCPC) ham shunga uchramoqda. Bu holat sudyalarga qo‘llanilishi kerak bo‘lgan norma turini tanlashni qiyinlashtiradi va protsessual xatolar ehtimolini oshiradi.

Bundan tashqari protsessual me‘yorlar va moddiy huquq o‘rtasidagi chegaraning noaniqligi. Ko‘plab mamlakatlarda qaysi norma protsessual, qaysi biri moddiy ekanligi har doim ham aniq emas, bu esa xalqaro xususiy huquqda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

*Uchinchi muammo* - protsessual qoidalarning qo‘llanilishida ijtimoiy tengsizlik. M. McDougall o‘z tadqiqotida AQSHda protsessual qoidalar rasmiy

neytral bo'lsa-da, ular amalda minoriti guruhlari vakillarini diskriminatsiya qiluvchi tarzda qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatgan. O'zbekistonda ham ayrim protsessual me'yorlardan foydalanish huquqiy savodxonlik va moliyaviy imkonga qarab differensiallanib qolmoqda.

*To'rtinchi umumiy muammo* - sud amaliyotini bixilllashtirishning institutsional qiyinchiligi mavjudkigi. Buyuk Britaniyada pretsedentlar tizimi (*stare decisis*) quyi sudlarni Oliy sud qarorlariga amal qilishga majburlaydi. Yevropa Ittifoqida esa Yevropa Adolat Sudi (ECJ) protsessual masalalar bo'yicha ham bir xillikni ta'minlovchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. *C.M. v. Belgium* (2018) ishi muammoning boshqa qirrasini - sud qarorini ijro etishda davlat organlarining vazifalari masalasini ko'rsatadi. YeIHS fuqarolik protsessual me'yorlari nafaqat sudlar, balki ijro organlari tomonidan ham to'liq qo'llanilishi zaruratini ta'kidlagan.

Sud amaliyotida fuqarolik protsessual huquqi manbalarini qo'llashdagi yuqorida tahlil etilgan muammolarni kompleks bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha islohotlar tavsiya etiladi.

*Birinchi yo'nalish* - normativ bazani tizimlashtirish va yangilash. O'zbekiston Respublikasi FPKiga raqamli dalillar, masofaviy muhokama, sun'iy intellekt ishtirokiga oid maxsus normalar kiritish, xalqaro shartnomalar va milliy normalar o'rtasidagi munosabatni aniqlashtiruvchi tartib belgilash zarur. Bu borada Germaniya va Fransiya tajribasi foydali bo'lishi mumkin.

Oliy sud Plenumi qarorlarining huquqiy maqomini rasman belgilash. Bu qarorlar huquq manbasi sifatida qonunchilikda aniq tan olinishi va ularni qo'llash tartibini tartibga soluvchi mexanizm yaratilishi lozim.

Sudga kirish imkoniyatini kengaytirish. Protsessual me'yorlar, jumladan davlat boji, imtiyozlar va huquqiy yordam tizimiga oid normalar real kirish imkoniyatini ta'minlaydigan tarzda takomillashtirilishi lozim. YeIHSning *Airey v. Ireland* ishidagi pozitsiyasi asosida: rasmiy huquq bilan real huquqni amalga oshirish imkoniyati o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish davlatning protsessual majburiyatidir.

Xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish. O'zbekiston, garchi YeIHS yurisdiksiyasiga bo'ysunmasa-da, xalqaro inson huquqlari standartlarini milliy protsessual qonunchilikka kiritish orqali *Golder v. UK*, *Hornsby v. Greece* kabi asoslangan standartlarning mohiyatini o'zlashtirib olishi mumkin.

Yuqorida bayon etilgan tahlildan ko'rinib turibdiki, fuqarolik protsessual huquqi manbalarini qo'llashdagi muammolar ko'p qirrali tus kasb etadi va ular O'zbekiston uchun ham, xalqaro miqyos uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Normativ kollizia va bo'shliqlar, Plenum qarorlarining noaniq maqomi, xalqaro shartnomalar bilan munosabat, sud amaliyotining birxilligini ta'minlash, sudga real kirish imkoniyati va raqamlashtirish bilan bog'liq yangi muammolar - bularning barchasi kompleks, tizimli yondashuvni talab etadi.

Milliy va xalqaro tajriba qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu muammolarning mohiyatida protsessual qonunchilik bilan real huquqiy amaliyot o'rtasidagi tafovut yotadi. Eng progressiv qonun ham agar sudlar tomonidan izchil va bir xilda qo'llanilmasa, fuqarolar uchun samarali himoya vositasiga aylanmaydi.

## FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 20.04.2021 yildagi O‘RQ-682-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 14.12.2000 yildagi (tahrirdagi).
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ijro ish yuritishi to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. Zivilprozessordnung (ZPO) – Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksi.
9. Nouveau Code de Procédure Civile (NCPC) – Fransiya Yangi fuqarolik protsessual kodeksi.

### **Ilmiy adabiyotlar va monografiyalar**

1. Mikhail Treushnikov va Elena Osokina asarlari (Fuqarolik protsessual huquqi nazariyasi).
2. Vladik Nersesyants va Sergey Alekseev tadqiqotlari (Huquq nazariyasi va konstitutsionalizm).
3. A.A.S. Zuckerman. Civil Justice in Crisis: Comparative Perspectives of Civil Procedure.
4. M.A. Shapiro. Courts: A Comparative and Political Analysis.
5. Z.D. Clopton. Procedural Variation and the Quality of Adjudication.

6. M. McDougall. Social Inequality and Procedural Justice.
7. Xodjaev Sh. Fuqarolik protsessi (Umumiy qism). – Toshkent: TDYU, 2021. – B. 33–37
8. Esanova Z. Fuqarolik protsessual huquqi. - T.: TDYU, 2022. - B. 14–22.
9. Треушников М.К. (tahr.). Гражданский процесс: Учебник. 5-е изд. – М.: Статут, 2014. – С. 24–27.
10. Нерсесянц В.С. Общая теория права и государства. – М.: Норма, 2012. – С. 184–191.
11. Ярков В.В. (tahr.). Гражданский процесс: Учебник для вузов. 10-е изд. – М.: Статут, 2017. – С. 32–38.
12. Гражданское процессуальное право России / Под ред. Афанасьева. Ko‘rsatilgan asar. – S. 44–45.